

**YOZMA NUTQNI RIVOJLANTIRISH
JARAYONING PSIXOLINGVISTIK
JIHATLARI**

Mamedova Farangiz Mirmusoyevna
Samarqand davlat chet tillar instituti o'qituvchisi

**THE DEVELOPMENT OF STUDENTS'
READING COMPETENCE**

Mamedova Farangiz Mirmusoyevna
Teacher of SamSIFL

**ПСИХОЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ
ПРОЦЕССА РАЗВИТИЯ ПИСЬМЕННОЙ
РЕЧИ**

Мамедова Фарангиз Мирмусоевна
Преподаватель Самаркандского государственного
института иностранных языков



E-mail:
farangiz@gmail.com

Orcid: 0094-0023-0024-
8422

Annotatsiya: Ushbu maqola matn bilan ishlash bosqichlari, xorijiy tildagi yozma nutq ko'nikmalarini rivojlantirishning asosiy psixologik omillari, o'qishga mo'ljallangan matn mazmuniga qo'yilgan talablar, shuningdek, o'qish turlarini aniqlashning tartiblari va o'qishni tushinishning ahamiyati haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: o'qish kompetensiyasi, yozma nutq, psixologik omillar.

Annotation: This article talks about the stages of working with text, the main psychological factors of developing written speech skills in a foreign language, the requirements for the content of the text intended for reading, as well as the procedures for determining the types of reading and the importance of reading comprehension.

Key words: reading competence, written speech, psychological factors.

Аннотация: В данной статье рассматриваются этапы работы с текстом, основные психологические факторы развития навыков письменной речи на иностранном языке, требования к содержанию текста, предназначенного для чтения, а также процедуры определения типов чтения и важности понимания прочитанного.

Ключевые слова: читательская компетентность, письменная речь, психологические факторы.

Kirish. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning: "Agar mendan sizni nima qiynaydi, deb so'rasangiz, farzandlarimizning ta'limi va tarbiyasi deb javob beraman", deya aytgan e'tiroflari, globallashuv jarayonida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan har bir islohot zamirida yetishib chiqayotgan har bir

kadrning kelajagi, mukammal til kompetensiyalarini egallashlari va yorqin istiqboli masalasi yotganligini ko'rsatadi. O'qish - nutq faoliyatining retseptiv turi hisoblanib, ko'rish sezgilari orqali yozma axborotni qabul qilib uning mazmunini tushunish faoliyatidir. O'qish nutq faoliyatining


turi sifatida yozma axborotni idrok qilish va tushinishga qaratilgan jarayondir. Shuning uchun o'qish nutq faoliyatining retseptiv turi hisoblanadi. Yozma axborotni qabul qilish o'qish mexanizmlari yordamida amalga oshiriladi.

Adabiyotlar tahlili. Ilmiy-texnika va boshqa axborotlar, asosan, o'qish orqali o'zlashtiriladi. Hozirgi davrda o'qish xuddi ovqatlanish, uyqu, ish singari faoliyat, ya'ni ma'naviy ozuqa olish vositasi bo'lib xizmat qilmoqda. O'quvchi chet tildagi darslik matnlari, o'qish kitobi, matbuot xabarlar va yangiliklarni o'qib, tili o'rganilayotgan mamlakat hayoti, madaniyati, tarixi, adabiyoti kabilar bilan yaqindan tanishadi. O'qishning shaxs tarbiyasidagi ahamiyati katta. Inson hayotida o'qish nihoyatda katta ahamiyatga ega

bo'lib, o'qish orqali kitobxon o'z bilimini oshiradi, dunyoqarashini kengaytiradi, estetik zavq oladi [1].

O'qishni o'rgatishda o'quv matnlari, ularni tanlash, oson yoki qiyinligi darajasini aniqlash mezonlari; matnlarni qisqartirish va osonlashtirish (adaptatsiya) kabi muammolarga duch kelamiz. Tadqiqotlarda aniqlanishicha o'smir yoshidagi o'quvchilar ilmiy ommabop matnlarni o'qishga qiziqishlari yuqori ekanligi isbotlangan.

Tahlil va natijalar. Matnlarning oson yoki qiyinligida, o'quvchining ruhiy xususiyatlariga monandligini aniqlashning ham o'ziga xos yo'llari mavjud. Biron bir o'qish turi uchun mo'ljallangan matn ustida ishlashning 4 bosqichi mavjud bo'lib, quyidagi 1.1 chizmada tasvirlangan:




1-rasm. Matn bilan ishlash bosqichlari

Matngacha bo'lgan bosqich – bu tayyorlov bosqichi hisoblanib berilgan material bilan tanishiladi va yuzaki o'rganiladi. Matn bilan ishlash bosqichida topshiriqlar bajariladi, matndan keyingi bosqichda esa bajarilgan amallar muhokama qilinadi va nihoyat oxirgi bosqichda esa ijodkorlik asosida yangi amal bajariladi.

O'qish faoliyat deb qaralganda, uning tarkibi motiv (undovchi sabab) tarzida muloqot

yuritish, maqsad sifatida axborot olish, shart-sharait holida tilning grafik sistemasini bilish hamda axborot olish usullarini egallash, va nihoyat, natija (oqibat) maqomida o'qilganni tushunib yetish kabilardan iboratdir.

Quyidagi chizmada o'qishning muhim jihatlari ushbu ketma-ketlikda aks ettirilgan. (1.3 chizma)



1.2-rasm. Xorijiy tildagi yozma nutq ko'nikmalarini rivojlantirishning asosiy psixologik omillari

Motiv, maqsad, shart-sharoit va natija to'rttalasi o'qishning uzviy bog'liq tomonlarini tashkil etadi. O'qish chog'ida ma'no bildiradigan eng kichik grafik birlik bo'lmish so'z idrok birligi deb shartli qabul qilingan.

O'qishning mazmuniy va texnikaviy tomonlari mavjud [2]. Qator metodik xatolar o'qishni o'rgatish bo'yicha samarali natijalarga erishishga imkon bermayapti. Quyida xato va to'g'ri ishlarning ta'rifi yonma-yon keltirilmoqda:

- 1) matnni boshdan-oyoq ona tiliga tarjima qilish/tarjima qilmaslik;
- 2) biror matnni sabab-besabab takroran o'qish/takror o'qimaslik;
- 3) matnni doimo ovoz chiqarib o'qish/ovoz chiqarmay o'qish;
- 4) matnni tushunish uchun leksik-grammatik tahlil qilish/tahlil qilmaslik;
- 5) notanish so'z ma'nosini taxminan fahmlab olish mexanizmini shakllantiruvchi mashqlarni kam bajarish/mashqlarni yetarli bajarish;
- 6) yaxlit matnni axborot olish maqsadida o'qilganda qismlarga ajratib/ajratmay o'qish;
- 7) matn oldi va matndan keyin bajariladigan mashqlarga nisbatan bevosita matnni o'qish mashqlarini kam/yetarli bajarish;

8) matnni o'qiganda o'quvchilar duch keladigan qiyinchiliklarni oldindan bartaraf etmaslik/qiyinchilikning oldini olish.

O'qishga mo'ljallangan matn mazmuniga quyidagi talablar qo'yiladi:

- I. matnning tarbiyaviy ahamiyati bo'lishi kerak, chet til o'rgatish maqsadlaridan biri tarbiyalashdir, jamiyat axloq qoidalarini singdirish, ya'ni ma'naviy (axloqiy) tarbiya berishga qaratilgan matnlar tanlanadi.
- II. o'quvchining hayotiy bilimini oshirish, ya'ni dunyoqarashini boyitishga xizmat qiladigan matnlar saralanadi. Bu talabaning bilish faoliyatini o'stirishda muhim shartlardandir. Aniq ma'lumotlarni aks ettiruvchi matnlarni o'qish umumiy ta'lim olishning ajralmas qismidir. Axborotga boy matnni o'qish har qanday kishida joziba uyg'otishi muqarrar. Chunki inson bolasi bilishga oshiqadi, bilishga moyilligi rag'batlantirilsa, ushbu o'quv predmetiga qiziqishi ortadi.
- III. o'qishga tavsiya etiladigan matnning mazmuni ilmiy jihatdan sifatli, ya'ni undagi ma'lumotlar voqelikni aks ettiradigan bo'lishi talab qilinadi. Talabga qandaydir faraziy yoki


taxminiy ma'lumotlarga asoslangan matnlar o'qitilmaydi.

- IV. tanlanayotgan matn o'quvchi yoshiga mos tushishi talab etiladi. Talaba ehtiyojini qondirish chet tilda nutqiy faoliyatga undashning muhim chorasidir.

Xullas, o'qish uchun tanlangan matn mazmuni o'quvchining ma'naviy saviyasiga muvofiq bo'lishi, bilish va hissiy talablariga javob berishi kerak.

Mabodo matn mazmuni boshqa o'quv predmetlarining materialini bevosita takrorlasa, undan o'quvchining ixlosi qaytishi hollari tajribada isbotlangan. Matnni o'qish oldidan undagi texnikaviy va tilga oid qiyinchiliklarning bartaraf etilishi zaruriy metodik tadbirdir [3].

O'qish turlarini aniqlashning 8 ta tartibi mavjud bo'lib, ular quyidagi chizmada ko'rsatilgan. (1.3-chizma)



1.3-rasm. O'qish turlarini aniqlash tartibi

Xulosa. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, o'qish kompetensiyasi barcha uchun hayotiy ahamiyat kasb etib, o'qishni tushinish orqali kitobxon nafaqat matnning mazmunini fahmlabgina qolmay, undan ma'naviy ozuqa ham oladi. O'qigan matnini mazmunini anglab ololmaydigan har qanday inson hayotda ko'p qiyinchiliklarga duch kelishi va xattoki, o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erisha olmasligi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. J. Shabanov "Chet tilini o'qitish metodikasi va zamonaviy texnologiyalari". 80 - bet Toshkent-2009
2. J. Jalolov "Chet tili o'qitish metodikasi" Toshkent – 2012. 257-bet
3. N.U. Sattorova "The emergence of the competence approach in the educational system and its importance today". "Science and innovation" - 2023
4. <https://www.ziyounet.net>